



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezlilarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

stansiyalari va mahalliy servis tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli sertifikatlash va elektron to'lovlar sohasida aniq reglamentlar va standartlar qabul qilib, ishonch muhitini yaratish zarur. Ikkinchidan, raqamli innovatsiyalarni ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun maqsadli qo'llash. Big data va tahliliy platformalar orqali tashrifchi oqimi va ekologik indikatorlarni prognozlash, «carrying capacity»ni real vaqt rejimida boshqarish mumkin. Blokcheyn esa ekologik sertifikatlar, karbon kompensatsiya va loyiha moliyalashtirishini shaffoflashtirish uchun qo'llanilishi mumkin — energiya va tranzaksiya samaradorligi hisobga olinib, yengil konsensus mexanizmlari tanlanishi maqbul.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida ekoturizmni rivojlantirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim vositasi hisoblanadi. Virtual turlar, raqamli marketing, IoT va blokcheyn texnologiyalari orqali ekotizimni nazorat qilish, resurslardan oqilona foydalanish va sayyohlar uchun qulaylik yaratish imkoniyati kengaymoqda. Shu bilan birga, raqamli infratuzilma, kiberxavfsizlik va shaffoflik masalalariga e'tibor qaratish zarur. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahalliy hamjamiyatlarni jarayonga jalb etish orqali ekoturizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalari yanada barqaror bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNWTO (2022). Tourism for Sustainable Development Goals. Madrid: UNWTO Publications.
2. Gössling, S., Scott, D., & Hall, C. M. (2018). Tourism and Sustainable Development Goals. Journal of Sustainable Tourism, 26(7).
3. Buhalis, D., & Amaranggana, A. (2015). Smart Tourism Destinations. Springer Proceedings in Business and Economics.
4. Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., & Koo, C. (2015). Smart tourism: foundations and developments. Electronic Markets, 25(3).
5. World Bank (2021). Digital Economy for Sustainable Development. Washington, DC: World Bank Group.

RAQAMLI IQTISODIYOT VA TURIZM

Raxmonova Shahnoza Rashidovna

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Nizametdinov Alijon

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

rakhmonovashaxnoza812@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasining rivojlanishi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonlari va ularning samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar – sun'iy intellekt, blokcheyn, katta ma'lumotlar (Big Data), virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) hamda raqamli marketing vositalarining turizm xizmatlarini modernizatsiya qilishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, turizm industriyasining raqamli transformatsiyasi

natijasida yaratilayotgan imkoniyatlar va mavjud muammolar ko'rib chiqilib, O'zbekiston tajribasi asosida istiqboldagi yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar, sun'iy intellekt, blokcheyn, virtual reallik, raqamli marketing, O'zbekiston turizmi, turizm iqtisodiyoti.

Kirish

So'nggi yillarda jahon miqyosida raqamli iqtisodiyot barcha sohalarning rivojlanishida yetakchi omillardan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki yangi xizmat turlarini shakllantirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, turizm sohasi raqamli iqtisodiyotning eng faol rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri sifatida ajralib turadi. Chunki zamonaviy sayyohlar xizmatlarni qidirish, bron qilish, narxlarni solishtirish, manzillar haqida ma'lumot olish va taassurotlarini ulashishda asosan internet va raqamli platformalardan foydalanadilar.

Turizm — xalqaro iqtisodiy aloqalarning eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida, raqamli texnologiyalar ta'sirida mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Sayyohlarning qaror qabul qilish jarayonidan tortib, safar davomida foydalanadigan xizmatlarigacha bo'lgan barcha bosqichlar endilikda raqamli platformalar bilan chambarchas bog'langan. Masalan, mehmonxona va aviachiptalarni onlayn bron qilish, mobil ilovalar orqali marshrutlarni shakllantirish, virtual gid xizmatlaridan foydalanish yoki sun'iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan tavsiyalar olish turizmning yangi ko'rinishlarini yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham turizmni raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. So'nggi yillarda elektron viza tizimining joriy etilishi, "uzairways.com", "booking.com", "airbnb" kabi xalqaro platformalar bilan integratsiya qilinishi, shuningdek, milliy turizm brendini targ'ib etishda raqamli marketing vositalaridan keng foydalanilishi mamlakat turizm salohiyatining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, Buxoro, Samarqand, Xiva kabi qadimiy shaharlarning virtual 3D ekskursiyalari yaratilgani ham O'zbekiston turizmining jahon bozoriga chiqishda yangi qadam bo'ldi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanishda qator muammolar ham mavjud.

Xususan, internet infratuzilmasining ayrim hududlarda yetarlicha rivojlanmagani, kadrlarning raqamli ko'nikmalarini takomillashtirish zaruriyati, kibermuhit xavfsizligi hamda mahalliy turizm subyektlarining raqamli transformatsiyaga to'liq tayyor emasligi sohaning rivojlanishida to'siq bo'lib qolmoqda. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot va turizm o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, innovatsion texnologiyalarning turizm industriyasiga ta'siri, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyotda turizm quyidagi rejalarni qamrab oladi:

1. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari
2. Turizm sohasida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi
3. Raqamli iqtisodiyotning turizmga ta'siri va afzalliklari
4. Raqamli turizm muammolari va yechimlari

Asosiy qism

1. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hamda global Internet tarmog'ining rivojlanishisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ushbu tushuncha nafaqat texnologik yutuqlar, balki iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllanishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Internetning keng joriy qilinishi 1990-yillardan boshlangan bo'lib, dastlab elektron pochta, fayllarni almashish, qidiruv tizimlari va forumlar orqali "virtual makon" yuzaga kelgan. Bugungi kunda esa Internet ta'lim, moliya, siyosat, ko'ngilochar xizmatlar albatta, turizmning ajralmas qismiga aylandi.

"Raqamli iqtisodiyot" atamasi ilmiy muomalaga 1990-yillarda kirib keldi. Kanadalik iqtisodchi Don Tapscottning "The Digital Economy" (1995) asari va amerikalik IT mutaxassisi Nicholas Negropontening "Being Digital" (1995) kitobi ushbu tushunchani ommalashtirdi. Negroponte raqamli iqtisodiyotni ommaviy axborot vositalari, aloqa va kompyuter texnologiyalarining birlashuvi asosida tushuntirgan bo'lsa, Tapscott jamiyatning yangi iqtisodiy bosqichga o'tishini, unda bilim va innovatsiyalar asosiy kuchga aylanishini ta'kidlagan

Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalar, internet va axborot-kommunikatsiya tizimlari asosida shakllanadigan iqtisodiy faoliyat turi bo'lib, unda tovar va xizmatlar asosan raqamli platformalar orqali yaratiladi, taqdim etiladi va iste'mol qilinadi. Ushbu atama dastlab 1990-yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, XXI asrda u global iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylandi.

2. Turizm sohasida raqamli texnologiyalarning ta'siri

Turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lib, uning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning roli beqiyosdir. XXI asrda sayohatni rejalashtirish, xizmatlarni bron qilish, to'lovlarni amalga oshirish va hatto safar davomida kerakli ma'lumotlarni olish jarayonlari asosan internet va mobil ilovalar orqali amalga oshirilmoqda. Shu sababli, raqamli texnologiyalar turizm industriyasining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqyosida onlayn bronlash tizimlari eng ommabop xizmatlardan biri bo'lib qolmoqda. Masalan, Booking.com, Airbnb, TripAdvisor va Skyscanner kabi xalqaro platformalar orqali sayyohlar mehmonxona, aviachiptalar va boshqa turistik xizmatlarni masofadan turib bron qilishlari mumkin. O'zbekistonda ham ko'plab mehmonxonalar va turistik kompaniyalar ushbu tizimlarga ulangan bo'lib, bu esa xorijiy sayyohlarning mamlakatga tashrif buyurishini yengillashtirmoqda. Shuningdek, virtual ekskursiyalar va 3D texnologiyalar turizmda tobora keng qo'llanilmoqda. Masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentdagi tarixiy obidalar hozirda virtual ko'rinishda taqdim etilmoqda. Bu texnologiya sayyohlarga safar oldidan mamlakat madaniy merosi bilan tanishish imkonini beradi va turistik marketingda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Turizm sohasida maxsus mobil ilovalar ham keng joriy etilmoqda. Jumladan, "Visit Uzbekistan" ilovasi orqali sayyohlar marshrutlar tuzishi, diqqatga sazovor joylar haqida ma'lumot olishi va xizmatlarni bron qilishi mumkin. Bu esa turistlarga safar davomida yanada qulaylik yaratadi. Raqamli marketing va ijtimoiy tarmoqlar turizm sohasida muhim o'rin egallaydi. Instagram, Facebook, TikTok va YouTube kabi platformalarda

sayyohlarning o'z taassurotlarini bo'lishishi natijasida tabiiy reklama yuzaga keladi. Shu sababli, ko'plab turistik kompaniyalar raqamli marketing strategiyalarini kuchaytirmoqda va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng auditoriyani jalb etishga erishmoqda. Davlat darajasida ham turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, 2018-yilda O'zbekistonda elektron viza tizimi (e-visa.gov.uz) joriy qilindi. Bu xorijiy sayyohlar uchun qulaylik yaratib, turistik oqimni oshirishga xizmat qildi. Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida turizmni raqamlashtirish, xizmatlarni elektron shaklga o'tkazish va yangi innovatsion yechimlarni joriy etish bo'yicha qator vazifalar belgilangan. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) hisobotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'yicha sayohat qilgan turistlarning 65 foizdan ortig'i safarlarini raqamli platformalar orqali bron qilgan. O'zbekistonda esa 2023-yilda 6,6 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, ularning katta qismi onlayn xizmatlardan foydalangan. Ushbu ko'rsatkichlar raqamli texnologiyalar turizmni rivojlantirishda naqadar muhim ekanligini yaqqol isbotlaydi. Turizmda raqamli texnologiyalar orqali rivojlangan mamlakatlar haqida quyida ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin:

1. Amerika Qo'shma Shtatlari dunyoda turizm va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirishda yetakchi davlatlardan biridir. Bu yerda Google Travel, Expedia, TripAdvisor kabi global platformalar faoliyat yuritadi. AQShda sun'iy intellekt va Big Data asosida sayyohlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatiladi. Masalan, mehmonxonalar va avia-kompaniyalar turistlarning qiziqishlari va xarid qilish odatlariga qarab maxsus paketlar taklif qiladilar. Shuningdek, Nyu-York va Las-Vegas kabi shaharlarda virtual reallik (VR) texnologiyalari yordamida interaktiv ekskursiyalar tashkil etiladi. 2. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari; Fransiya, Germaniya, Italiya va Ispaniya turizmda raqamli texnologiyalarni keng qo'llayotgan davlatlardir. Parijdagi Eyfel minorasi, Rimdagi Kolizey yoki Barselonadagi Sagrada Familia kabi diqqatga sazovor joylarda onlayn chiptalar, QR-kodli kirish tizimlari va mobil gid-ilovalardan keng foydalaniladi. Germaniyada "Smart Tourism" dasturi orqali shaharlar aqlli transport tizimlari, elektron bronlash platformalari va sun'iy intellekt asosidagi navigatsiya xizmatlari bilan jihozlangan.

3. Janubiy Koreya turizmda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etgan mamlakatlardan biridir. Seul shahrida raqamli turistik markazlar mavjud bo'lib, ular orqali sayyohlar virtual reallik yordamida diqqatga sazovor joylar bilan tanishishlari mumkin. Shuningdek, "Visit Korea" mobil ilovasi sun'iy intellekt yordamida sayyohlarga shaxsiy marshrut tuzib beradi. 4. BAA, xususan Dubay va Abu-Dabi, turizmni raqamlashtirishda global yetakchilardan biri hisoblanadi. Dubay xalqaro aeroportida yuzni aniqlash tizimi asosida tezkor pasport nazorati amalga oshiriladi. Shuningdek, sayyohlar uchun Dubay Mall va Burj Xalifa kabi diqqatga sazovor joylarda mobil ilovalar orqali virtual gid xizmatlari taqdim etiladi. Dubay "aqlli shahar" konsepsiyasiga asoslangan holda raqamli texnologiyalarni turizmda keng qo'llashni davom ettirmoqda.

3. Raqamli iqtisodiyotning turizmga ta'siri va afzalliklari

Raqamli iqtisodiyot bugungi globalashuv davrida barcha sohalarning, xususan turizm industriyasining rivojlanishida muhim omilga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalarni turizmga joriy etish nafaqat xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi, balki

turistik jarayonlarning samaradorligini kuchaytiradi, iste'molchi va xizmat ko'rsatuvchi o'rtasidagi aloqani yengillashtiradi. Avvalo, raqamli iqtisodiyot turizmining jahon bozoriga integratsiyasini tezlashtiradi. Onlayn bron qilish tizimlari, elektron vizalar, xalqaro to'lov platformalari va virtual ekskursiyalar yordamida sayyohlar dunyoning istalgan nuqtasidan O'zbekistonga yoki boshqa mamlakatlarga bema'lol sayohat rejalashtira oladi. Bu esa turistik oqimning ortishiga olib keladi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot turizm sohasida marketing va reklama imkoniyatlarini kengaytiradi. Ijtimoiy tarmoqlar, internet reklamalari va raqamli marketing strategiyalari orqali mamlakatlarning turistik salohiyati millionlab insonlarga tezkor yetkaziladi. Masalan, Instagram yoki TikTok'dagi qisqa videolar yangi manzillarni targ'ib qilishda samarali vositaga aylangan. Uchinchidan, raqamli iqtisodiyot turizm xizmatlarning shaxsiylashtirilishini ta'minlaydi. Sun'iy intellekt va Big Data tahlillari yordamida turistlarning qiziqishlari, byudjeti va odatlariga qarab maxsus marshrutlar, xizmat paketlari va takliflar tayyorlanadi. Bu esa turistlar uchun yanada qulay va qoniqarli sharoit yaratadi.

4. Raqamli turizmning muammolari va yechimlari

Raqamli texnologiyalar turizm sohasida katta imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ularning joriy etilishi ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda turizmning barqaror rivojlanishi uchun bu muammolarni tahlil qilish va ularni samarali yechish yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda, raqamli turizm axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish eng muhim muammolardan biridir. Sayyohlar onlayn bronlash, elektron to'lov va mobil ilovalardan foydalanishda o'z ma'lumotlarini internetda qoldiradilar. Bu esa kiberhujumlar va firibgarlik xavfini oshiradi. Yechim sifatida, kuchli shifrlash tizimlarini joriy qilish, ikki bosqichli autentifikatsiya va xalqaro kiberxavfsizlik standartlariga amal qilish zarur. Ikkinchi muammo — raqamli tengsizlik. Dunyoning barcha hududlarida ham internet qamrovi va raqamli infratuzilma bir xil emas. Aholining qishloq joylarda yashovchi qismi yoki texnologiyadan foydalanish imkoniyati cheklangan guruhlar turizm xizmatlaridan to'liq foydalana olmaydi. Buni bartaraf etish uchun keng polosali internet tarmoqlarini kengaytirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish lozim. Uchinchi muammo sifatida raqamli savodxonlikning yetarli darajada emasligini qayd etish mumkin. Ko'plab turistlar, ayniqsa keksalar, onlayn platformalardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu masalani hal etish uchun turizm sohasida foydalanuvchilarga qulay interfeysli dasturlar yaratish, turistik kompaniya xodimlarini raqamli ko'nikmalar bo'yicha o'qitish va aholi orasida raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilishi kerak.

To'rtinchi muammo — soxta axborot va yolg'on reklama. Internetdagi turizm xizmatlari orasida yolg'on ma'lumotlar, ishonchsiz mehmonxonalar yoki mavjud bo'lmagan xizmatlar reklamasi turistlar uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun davlat darajasida litsenziyalash tizimini kuchaytirish, turizm xizmatlarini onlayn nazorat qilish va ishonchli platformalarni qo'llab-quvvatlash zarur.

Xulosa qilib aytganda, raqamli turizmning muammolari mavjud bo'lsa-da, ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish orqali sohaning rivojlanishiga katta turtki

berish mumkin. Yaxshi yo'lga qo'yilgan raqamli infratuzilma, yuqori darajadagi axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kelajakda turizmni yanada samarali va barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Don Tapscott. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. McGraw-Hill, 1996.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son Farmoni. — Lex.uz.
3. Sanakulova I. "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasining iqtisodiy samaradorliklari". — Ilmiy maqola, 2021.
4. Bakaev Z. T. "O'zbekistonda turizm sohasida raqamli iqtisodiyotning roli". — Samarqand davlat universiteti, 2020.
5. UNWTO (Jahon turizm tashkiloti). World Tourism Barometer, 2023-yil noyabr soni. — www.unwto.org.
6. OECD. Tourism Trends and Policies 2022. OECD Publishing, Parij, 2022.
7. Buhalis D., Law R. "Axborot texnologiyalari va turizm menejmentida taraqqiyot: Internet paydo bo'lgandan keyin 20 yillik tajriba". — Tourism Management, 2008.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-yanvardagi "O'zbekiston turizmini 2040-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" to'g'risidagi qarori. — Lex.uz.
9. Invest Uzbekistan. "O'zbekistonda turizm yuksalmoqda: 5,2 million xorijiy sayyoh, 2 mlrd. dollar daromad (2023)". — invest.gov.uz.
10. Teshayeva G. "O'zbekiston – 2030 strategiyasi: Raqamli jamiyatga o'tishda axborot texnologiyalarining tutgan o'rni". — Tadqiqotlar.uz, 2023.

O'ZBEKISTONDA TURIZMNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Usmonova Vasila Botirovna

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Abdulhamidov Abdullajon Ortiq o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

abdulabdullajon3232.32@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda mamlakatimiz iqtisodiyotini turli soha va yo'nalishlardan foydalangan holatda rivojlantirish juda muhim muhim ahamiyatga ega va shu bilan bir qatorda zamon talabi bo'lib qolmoqda. Bu o'rinda turizm sohasining ahamiyati ulkan, turizm sohasini rivojlantirish orqali biz yurtimizning go'zal va takrorlanmas katta salohiyatga ega bo'lgan o'ziga hos madaniyatini, o'zida ming yillarga tatigulik tarixiy shaxarlar va obidalarini, tabiatini, laziz taomlar, shifobaxsh maskanlarini va juda ko'plab boshqa